

## TEXNOLOGIK TA'LIM YO'NALISHI TALABALARI UCHUN BMI

1	Balkalarning egilishi kattaligi va burchagini aniqlash qurilmasini takomillashtirish	Balkalarning egilishi kattaligini va burchagini tajribada aniqlashda katta o'lchamli murakkab konstruksiyali standart qurilmalardan foydalaniladi. Ushbu ishda kichik o'lchamli, ishlatishga qulay va sodda konstruksiyali qo'lda yasalgan qurilmadan foydalanishning pedagogik afzalliklari haqida tavsiyalar bayon qilanadi.
2	Kichik issiqxonalar konstruksiyasini takomillashtirish	Kichik issiqxonalar konstruksiyasini takomillashtirish uy sharoitida yoki maktab va boshqa kichik muassasalar binosiga tegishli manzarali maydonlarda issiqxonalarni quyosh nuridan maksimal foydalanish imkoniyatlarini nazarda tutadi.
3	Vintsimon silindrik prujinalar orqali Guk qonunini namoyish qilish qurilmasini konstruksiyasini konstruksiyalash.	Vintsimon silindrik prujinalar orqali Guk qonunini namoyish qilish qurilmasini konstruksiyalash muammosi standart prujinali tarozidan foydalanishga mo'ljallangan qo'lda yasagan moslamani nazarda tutadi.
4	Kartografiyaga mo'ljallangan kurvimetr konstruksiyasini takomillashtirish.	Kartografiyaga mo'ljallangan kurvimetr konstruksiyasini takomillashtirish, undan planimert (kurviplanimert) sifatida ham foydalanish imkoniyatini nazarda tutadi
5	Gorizantal shpendel konstruksiyasini takomillashtirish.	Gorizantal shpendilni takomillashtirish, uning tishlarini ta'mirlamasdan ishlash muddatini amaldagi gorizantal shpendillarga nisbatan ikki barobar muddatga oshirish imkoniyatini nazarda tutadi.
6	Amaliy mexanikaga oid kichik o'lchamli universal qurilmasini konstruksiyalash	Amaliy mexanikaga oid kichik o'lchamli qurilmaning konstruksiyasini takomillashtirish undan foydalanib bitta qurilmada universallik ya'ni bir necha sinov tadqiqot ishlarini bajarish imkoniyatlarini nazarda tutadi.
7	Materiallarning yopishqoqligini aniqlash qurilmasini takomillashtirish.	Materiallarning zarbiy qovushqoligini aniqlash qurilmasini konstruksiyalash standart murakkab qurilma o'rniga kichik o'lchamli qo'lda yasalgan sodda qurilma konstruksiyasidan foydalanishni nazarda tutadi.
8	Xatkash sirkul konstruksiyasini takomillashtirish	Texnologik ta'lim praktikumidan (duradgorlik bo'yicha) amaliy mashg'ulotlarda foydalaniladigan xatkash sirkulning konstruksiyasini takomillashtirishga e'tibor qaratiladi.
9	Chizmachilikka oid universal qurilma konstruksiyasini yaratish.	Talabalarga kelajakda o'zlarining texnik fikrlarini chizma orqali namoyon qilish, tasvirlangan har qanday buyum, yoki ob'ektlarning chizmasi bo'yicha ishlash prinsipi va konstruktiv tuzilishini tushunib olish va tasavvur qila olish uchun bilim, ko'nikma va malaka berishdan iborat. Chizmachilikka oid universal qurilma konstruksiyasini yaratish uchburchak shaldagi chizg'ich (lineyka)lardan faqat o'lchash, $90^0$ burchak ostida chizishdan tashqari aylanalarga hohlagan burchakka mos urinmalar o'tkazishni nazarda tutadi.
10	Parmalash stanogi uchun tugich moslamani konstruksiyasini takomillashtirish.	Texnologik ta'lim praktikumi bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda parmalash stanogida buyumlarni (zagatovkalarni) tutib turish uchun mo'ljallangan moslamalarni konstruksiyasini takomillashtirish masalasiga qaraladi.